

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti, 60840100- veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 3-bosqich 303- guruh talabalari uchun "Veterinariya farmakologiyasi" fanidan assistent M.A.Sharapov tomonidan tayyorlangan "To'qima preparatlari va ularga retseptlar yozish" mavzusidagi amaliy mashg'ulot matniga

TAQRIZ

Ushbu mavzudagi "Veterinariya farmakologiyasi" fanidan 60840100- veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 303-guruh talabalari uchun namunaviy dastur va ishchi o'quv dasturi asosida yozilgan. Mavzuga tuzilgan texnologik xarita rejaga asosan yoritilib, unda qo'llanilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, tayanch iboralar, darsning maqsadi, vazifalari, mazmuni, nazorat test savollari mavjud. amaliy mashg'ulotda to'qima preparatlarini, ularni qo'llash texnologiyasi, preparatlari, ushbu moddalarning farmakologik ta'sir mexanizmi, dozalari, asoratlari to'g'risida batafsil bayon etilgan.

Amaliy mashg'ulotini olib borish texnologiyasi ixcham, sodda tushunarli tilda yozilgan bo'lib, talabalar o'zlashtirishi uchun juda qulaydir. Mavzuga oid jadvallar o'z o'rnida izohi bilan berilgan.

Muallif mavzuni to'liq yoritib, uni o'qiganda oddiy va yengil tushuncha hosil qilishiga erishgan. Matnda to'qima preparatlarning barcha shakllari hozirgi veterinariya amaliyotida tutgan o'rnini, ularni o'zaro bog'liqligi hamda har xil yoshdagi hayvonlariga qo'llanilgandagi farqlari, dozalari to'g'risida ma'lumotlar aniq va mukammal bayon etgan.

Ayni paytda ushbu amaliy mashg'ulot talabalarda mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka paydo qilib bo'lajak mutaxassislarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

M.A.Sharapov tomonidan "Veterinariya profilaktikasi va davolash" fakulteti 60840100- veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi "Veterinariya farmakologiyasi" fanidan yozilgan "To'qima preparatlari va ularga retseptlar yozish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotni ijobiy baholayman.



Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti,
Yuqumli kasalliklar va toksikologiya
laboratoriya mudiri, v.f.n.:

M. Isayev

